

**YOSHLARDA IJTIMOY TARMOQLARGA TOBELIKNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Sanayev Alisher Komiljon o'g'li

O`zMU jizzax filiali

Yoshlar Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Zulfiyeva Sarvinoz Doston qizi

O`zMU jizzax filiali

Yoshlar Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Namuratova Madinabonu Ulug'bek qizi

O`zMU jizzax filiali

Psixologiya fakulteti 1-bosqich talabalasi

Sayibova Nodirabegim Tangirberdi qizi

O`zMU jizzax filiali Psixologiya fakulteti

1-bosqich talabalasi

**Rezyume:**

Hayotimizda ijtimoiy tarmoq qudratli axborot quroliga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning juda ham ko'p vaqtlarini o'g'irlab qo'yimoqda. Bunday illatlar natijasida yoshlarning ruhiyatida ham juda ko'p o'zgarishlar yuz bermoda. Bu esa jamiyatda yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

**Kalit so'zlar:** muammo, internetga tobelik, ma'naviyat, ijtimoiy tarmoq, ruhiyat, muloqotning buzilishi, yolg'izlik, global, e'tibor, tahdid.

**Аннотация:**

В нашей жизни социальная сеть стала мощным информационным инструментом. Социальные сети крадут у молодежи много времени. В результате таких пороков в менталитете молодежи происходит не так много изменений. Это создает новые проблемы в обществе.

**Ключевые слова:** проблема, интернет-зависимость, духовность, социальная сеть, настроение, расстройство общения, одиночество, глобальность, внимание, угроза.

Ma'lumki internet hayotimizning bir qismiga aylandi. Bugungi kunda ko'plab internet foydalanuvchilari mashhur ijtimoiy tarmoqlarga katta e'tibor berishadi. Bunday veb-xizmatlarning ko'plab tarafdorlari va qarshi tomonlari ham bor. Bizga, yoshlarga nisbatan, bu muammo ayniqsa dolzarbdir. Hozirgi davrga kelib internet tizimining ijtimoiy tarmog'ida ma'naviy, axloqiy tubanlikni „yuksaltiruvchi“ sahifalarning soni kundan-kunga bir necha yuz milliondan oshayotganligi jamiyatimizni yanada tashvishlantiradi. Mana shunday keng qamrovli muammolarni yechimini topishda ham anchagina yangicha qarashlar yuzaga kelmoqda. Bu haqida Chingiz Aytmatov shunday yozadi; Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Ayni daqiqada sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda yoshlarning ko'p vaqtini internetdan behuda sarflashi katta fojidadir"[1]. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolishida ota-onalarning ro'li katta. Chunki ular farzandlariga juda ham kam vaqt ajratadilar va ular bilan suhbatlashmaydilar ham. Farzandlarining qiziqishlarini, nimani xohlayotganini ham bilishmaydi. Va ularning xatti-harakatlariga e'tibor ham bermaydilar. Natijada esa farzandlarini biron-bir sohaga ham yo'naltirmaydi. Bunday hollarda yoshlarning vaqti samarasiz foydasiz o'tadi. Ular mana shu vaqtini internet tarmog'ida har xil videolarni ko'rish, o'yinlarni o'ynash bilan o'tkazadi. So'ng o'zlari bilmagan hoda ijtimoiy tarmoqlarga asir bo'ladi. Ular o'zlarining yon atroflaridagi insonlar bilan muloqotga kirishmaydi va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga e'tibor bermaydi. Ularda ruhiy o'zgarishlar keskin kechadi. Ular uchun ijtimoiy tarmoq hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Mana shu doiradagi yoshlarning fikriga ko'ra ijtimoiy tarmoqlar bo'lmasa hayot davom etishdan to'xtaydi. Bunday yoshlar o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy –milliy qadriyatlarga, sog'lom negizida shakllangan dunyoqarashga va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishidagi ta'sirlarga bardosh berishi amrimahol.[3]

Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo'lib, undan inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o'tkazib yuborish bilan birga yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarni nazar- pisandga olmaydi ajdodlar qadriyatini inkor etadi[2].

Buning oldini olish uchun yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarning o'z ijodlarini erkin namoyon etish va axborot almashish imkoniyatlarini yanada kengaytirish kerak.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq bosh vaziri Margaret Tetcher „Internet tarmoqlari terrorchilar uchun kislorod vazifasini o'taydi“

degan. Bu gapning mag'zini chaqqan inson „Internet tarmoqlari terrorchilar uchun havodek zarur ekan“, degan xulosaga keladi. Bir qarashda bu fikr mantiqsizday tuyuladi. Chuqurroq o'ylab ko'rsak -chi? Aslida terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan o'ldirish orqali millionlarda qo'rquv va dahshat uyg'otishga intiladilar. Demak ularning maqsadlari-o'ldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi internet saytlari o'zlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik, qo'paruvchilik ta'sirini yanada oshirishga „xizmat“qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlarini haqidagi vahimali, qo'rqinchli, yolg'on va bo'htonlarga to'la axborotlari yoshlardagi qo'rquvni, dahshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bunday hollarda yoshlarda kelajakka nisbatan xavotirli, vahimali qarashlar paydo bo'ladi. Ularning onglarida o'zlari to'g'ri deb bilgan tushunchalarga nisbatan ikkilamchi fikrlar paydo bo'ladi. Bu esa juda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Demak ijtimoiy tarmoqlarda va shunga o'xshash vositalarda e'lon qilinayotgan aholining eng katta qatlami fikriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarning doimiy monitoringini amalga oshirish hamda tegishli davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari munosabat bildirishi uchun ularga yuborilishi kerak. Mana shunday tashkiliy ishlar olib borilsagina yurtimizda bunday holarlar yuz berishini oldini olgan bo'lar edik. Bu esa har tamonlama yoshlarni himoyalashga va ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiluvchi g'oyalarning yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Yaqindagina jamiyatimizdagi ota-onalar yoshlarning kompyuter o'yinlariga berilib, ularga bog'lanib qolishlari xavfidan cho'chib, oldini olishga harakat qilgan bo'lsalar, hozirgi vaqtda bu xavfga yana ijtimoiy tarmoqlar xavfi ham qo'shildi. Yoshlarning hovli va ko'chalardagi muloqotlari hozirda haqiqiy hayotdan asosan aynan cheti-chegarasi yo'q ijtimoiy tarmoqlarga ko'chdi. Mazkur muloqotlar shunisi bilan ham qiziqroqki avvalo tarmoqda o'zlariga ko'proq „do'st“ orttirish imkoni mavjud. Tarmoqda muloqot qilgan ekan, yoshlar o'zlarini omadli bola qilib ko'rsata oladilar. O'zgaralar rovida o'zlarini taqdim etib, turli yolg'on dunyolarga berilib ketadilar. Uyatchang va tortinchoq yoshlar uchun ehtimol tarmoqlardagi muloqotlarning foydali jihatlari border vaqti kelib, haqiqiy hayotda bu muloqotlar o'z samarasini ham berishi mumkin. Lekin virtual „do'stlari“ orasida yomon niyatli kimsalar duch kelish xavfi va ular bilan haqiqiy hayotda uchrashishlari, ishonuvchan odatlariga ko'ra begonalar bilan dildan suhbatlashishlari xavfini alohida ta'kidlashlari zarur.



Bunday muloqotlar ko'pincha kiberjinoyatchilar uchun juda qulay sharoit ekanligi har bir yosh avlod bilmog'i lozim. Ommaviy tarqatiladigan spam iltimos bilan murojaat etiladigan SMS xabarlar, allaqanday shubhali „Tanlov“ lar haqidagi e'lonlarga ishonmaslik –ummuman, kompyuterga zanjirisiz bog'lanib butun hayot yo'lini qora dog' bilan bulg'anishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfli axborotlarga aldanmaslikni onglariga singdirish zarur.

Bundan tashqari hozirgi davrda jahonning qator davlatlarida ijtimoiy tarmoqlar o'zining salbiy ta'sirlarini namoyon etib ulgargan. Internet tarmog'idan yoshlarni himoya etishga xizmat qiluvchi texnik imkoniyatlar mavjud – bu maxsus dasturlar bo'lib, ular aynan salbiy ta'sir etuvchi axloqsizlik, yomon odatlarni targ'ib qiluvchi saytlarning ochilishiga yo'l bermaydi, ya'ni agar o'smir shunday axborotlarni hatto izlash tizimiga kiritrsa izlash natijalari samarasiz bo'ladi. Bundan ham yoshlarni har tamonlama himoya qilinayotganligi ochiq oydin ayta ko'rsata olamiz. Bu ham albatta yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolishining oldini olish usullaridan biri bo'lib shakllangan. Hamda mana shunday islohotlarning yaqin kelajakda ko'plab davlatlarda amalga oshirilishi yoshlarning kelajagi uchun juda ham foydali. Ya'ni kelajak yoshlari sog'lom fikrlash darajasiga erishadi.

### **Xulosa**

Xulosam shundan iboratki, hozirgi kunda jamiyatimiz hayoti fan-texnologiyalar rivoji bilan tobora uyg'unlashib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Shunday ekan, har birimiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga amal qilishimiz, o'z navbatida uni atrofida qilargalarga ham o'rgatish ham foydali ekanligini anglashimiz kerak. Binobarin yoshlarning ruhiy-ma'naviy olamini zararli unsurlardan, turli xil buzg'unchi yod va zararli g'oyalardan himoya qilish orqali taraqqiyot poydevori yaratiladi. Yoshlarning kelajakka bo'lgan ijobiy go'yalarini yanada ko'tarinki ruhda amalda qo'llay olishimiz mumkin.

### **Adabiyotlar:**

1. Tashmetov .T.X.(2020) Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishning zamonaviy usullari. Academic research in Educational Sciences, 1(3), 326-331.
2. Yahyo Muhammad Amin . Internetdagi tahdidlardan himoya T.: "Movaraunnahr", 2016.
3. Rajabov H. 'Globallashish sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari' mavzusidagi ilmiy –amaliy konferentsiya materiallari

T:2022 yil ,b206-206

4.Ommaviy axborot vositalari mustaqilligni ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora -tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori(Manba : uza.uz)-2019.

5.Karimov I.A.,Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch "T:-2008.